

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BOG‘LANGAN NUTQNI RIVOJLANTIRUVCHI TEXNOLOGIYALAR

Isayeva Mushtariy Alisher qizi

*Alfraganus Universiteti Pedagogika va Psixologiya fakulteti, Defektalogiya yo’nalishi
3-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqni rivojlanishining ahamiyati, maktabgacha yoshdagi bolalarini nutqni rivojlanishining tamoyillari va bog‘langan nutqni rivojlaniruvchi texnologiyalar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: pedagogik, texnologiya, metod, kommunikativ, didaktiv, innovatsion, psixolog, grammatika, struktura, akademik.

Аннотация: В данной статье представлена информация о важности развития речи дошкольников, принципах развития речи дошкольников и технологии развивающих связанный речь.

Ключевые слова: педагогический, технологический, методический, коммуникативный, дидактический, инновационный, психолог, грамматика, структура, академический.

Abstract: This article provides information about the importance of the development of speech in preschoolers, the principles of speech development in preschoolers and technical taxes that develop related speech.

Key words: pedagogical, technological, methodological, communicative, didactic, innovative, psychologist, grammar, structure, academic.

KIRISH:

Maktabgacha yosh davrida (3-7 yosh) bolalar nutqining shakllanishi va rivojlanishi juda muhim jarayondir. Bu davrda bolalar so’z boyligini kengaytiradi, grammatika qoidalarini o’zlashtiradi va o’z fikrlarini bog‘langan nutq orqali aniq va tushunarli bayon qilishni o’rganadi. Bog‘langan nutq bolaning muloqotga kirishish, tafakkurini rivojlanirish va o’zini ifoda etish qobiliyatiga bevosita ta’sir ko’rsatadi.

Ushbu jarayonda zamонави pedagogik texnologiyalarning ro’li katta bo‘lib, ular bolalarning nutqiy qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu maqolada bog‘langan nutqni rivojlanirish bo‘yicha ilg‘or texnologiyalar, ularning ahamiyati, turli yondashuvlar va pedagogik metodlar haqida batafsil so’z yuritiladi.

1. Bog‘langan nutqni rivojlanirishning asosiy tamoyillari

Maktabgacha yoshdagi bolalarda bog‘langan nutqni rivojlanirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Muloqotga yo’naltirilganlik – bolaning hayotiy vaziyatlarda muloqot qilish ehtiyojini shakllantirish.

- O’ziga xoslik va individual yondashuv – har bir bolaning nutqiy rivojlanish darajasini inobatga olgan holda.

- Qiziqarlilik va o‘yin orqali o‘rganish – nutqiy mashqlarni o‘yin shaklida tashkil etish.

- Matn va hikoya asosida rivojlantirish – bolalarni hikoya qilishga va matnni qayta hikoyalashga o‘rgatish.

- Ijodiy yondashuv – nutqni rivojlantirish uchun badiiy adabiyot, musiqiy, teatr va tasviriy san’at asarlaridan foydalanish.

- Integratsiyalashgan o‘qitish – nutqni rivojlantirishni boshqa sohalar (matematika, san’at, texnologiya) bilan bog‘lab olib borish.

2. Bog‘langan nutqni rivojlantirish texnologiyalarining har xil turlari mavjud. Maktabgacha yoshdagи bolalar nutqini rivojlantirishda bir qancha innovatsion va an’anaviy texnologiyalar qo‘llash mumkin.

Kommunikativ texnologiyalarda bola va atrofdagilar o‘rtasidagi faol muloqotni rag‘batlantirishga asosida o’tkaziladi va quyidagi metodlarda foydalanish yaxshi samara beradi:

- dialogik nutq – bolalarni muloqotga jalb qilish uchun savol-javob, suhbat tashkil etish.

- rolli o‘yinlar – turli hayotiy vaziyatlarni sahnalashtirish (do‘konda savdo qilish, kasb-hunar o‘yinlari).

- erkin hikoya qilish – bolaning tasavvurini ishga solish orqali mustaqil hikoya tuzish.

- o‘yin orqali o‘rganish bolalar uchun eng tabiiy va samarali usullardan biridir.

Didaktik o‘yinlarning bolalar so‘z boyligini oshirish, grammatik tuzilishini shakllantirishda ahamiyati katta. Masalan: “Kim ko‘proq so‘z ayta oladi?” o‘yini lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan bo‘lsa, “Hikoyani davom ettir” o‘yini bolalarni bog‘langan nutqini rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi. “Topishmoq ayt, javobini top” o‘yini orqali esa bolalarda mantiqiy fikrlash va tasavvurni rivojlantirishga yordam beradi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish:

- Zaytsev metodikasi – tovush va harflarni qo‘sib, yangi so‘zlar hosil qilish orqali nutqni rivojlantirish.

- Montessori usuli – bolani mustaqil nutqiy faoliyatga yo‘naltirish.

- Sinqueyn usuli – besh satrli she’r yaratish orqali so‘z boyligini oshirish mumkin.

- Mnemotexnika – suratlar va belgilardan foydalanib, nutqni mustahkamlashga qaratilgan.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) dan foydalanish. Raqamli texnologiyalar bolalarning qiziqishlarini oshirishga yprdam beradi, nutqiy rivojlanishni tezlashtiradi.

- Audio va video darsliklar – animatsiyalar, multfilmlar orqali yangi so‘zlarni o‘rgatish.

- Interaktiv dasturlar – nutqni rivojlantirishga mo‘ljallangan mobil ilovalardan foydalanish.

- Elektron kitoblar – bolalar uchun audio hikoyalar va interaktiv ertaklarni qo’llash mumkin.

Badiiy adabiyot asosidagi texnologiyalarni qo’llash.

- Ertak terapiyasi – ertaklar orqali axloqiy va nutqiy rivojlanishiga ahamiyat berish.
- She’r va hikoyalar o‘qish – bolalarni badiiy nutq bilan tanishtirish.
- Ijodiy hikoya yaratish – bola o‘z fikrlarini ifodalashga o‘rgatish.

Teatr texnologiyalaridan foydalanish.

- Qo‘g‘irchoq teatri – bolalar dialogik nutqni rivojlantiradi.
- Sahna qo‘yish – bolalar tomonidan hikoyalar va ertaklarni sahnalashtirish.
- Dramatik o‘yinlar – bolalarning nutqiy ifodaviyligini oshirish.

3. Bog‘langan nutqni rivojlanishish texnologiyalarini samarali qo’llash uchun kun tartibida nutqiy mashg‘ulotlarga joy ajratish, bolalar bog‘chasida maxsus nutqiy rivojlanishish markazlarini yaratish, ota-onalar uchun seminar va treninglar o‘tkazish, bolalar ishtirokidagi sahnalashtirilgan chiqishlar, hikoya aytish kechalari tashkil etish, interaktiv doskalar va mobil ilovalardan foydalanish kabi amaliy tadbirlar tashkil etiladi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarda bog‘langan nutqni rivojlanishish jarayoni muhim pedagogik vazifadir. Nutqning rivojlanishi bolaning kelajakdagi ta’lim jarayoni, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar – o‘yin, innovatsion, kommunikativ va AKT yondashuvlari orqali bolalarning bog‘langan nutqini samarali rivojlanishish mumkin. Maktabgacha ta’lim muassasalarida va oilada bu texnologiyalarini qo’llash bolalarning nutqiy kompetensiyasini oshirib, ularni maktab ta’limiga tayyorlashga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalar nutqining rivojlanishi ularning kelajakdagi akademik yutuqlari va ijtimoiy moslashuvi uchun muhim asos yaratib beradi. Bog‘langan nutq – bolaning fikrlarini izchil va tushunarli ifoda etish qobiliyati. Ushbu jarayonni qo’llab-quvvatlashda o‘yin faoliyati, ayniqsa, didaktik o‘yinlar muhim o‘rin tutadi. Ko‘plab pedagog va psixolog olimlar nutqni rivojlanishishda didaktik o‘yinlarning ahamiyatini alohida ta’kidlab, ularning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab berishgan.

Didaktik o‘yinlarning bog‘langan nutqni rivojlanishidagi o‘rni juda katta hisoblanadi. Didaktik o‘yinlar bolalarning so‘z boyligini oshirish, nutqning grammatik tuzilishini mustahkamlash, mantiqiy va obrazli fikrlashni rivojlanishishda katta ahamiyatga ega. Pedagogik nazariyaga ko‘ra, o‘yin jarayonida bolalar nutqiy faoliyat bilan faol shug‘ullanishadi, bunda ularning og‘zaki muloqot qobiliyatlarini shakllantiradi.

L.S. Vygotskiy (1983) – mashhur psixolog va pedagog, nutq rivojlanishini ijtimoiy muhit bilan bog‘liqligini ta’kidlagan. Unga ko‘ra: Bola o‘yin jarayonida muloqot qiladi, ya’ni bog‘langan nutq amaliy qo’llaniladi. Nutq o‘yin faoliyati orqali ijtimoiylashadi va mustahkamlanadi. Didaktik o‘yinlar orqali bola tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglaydi va fikr yuritish qobiliyatini rivojlaniradi.

Faoliyat nazariyasining asoschisi A.N. Leontyevning fikricha bola uchun o‘yin – bu ta’lim olishning tabiiy shakli. Didaktik o‘yinlarda bolaning nutqiy va tafakkur faoliyati parallel rivojlanadi. O‘yin orqali o‘zlashtirilgan bilimlar mustahkamlashadi bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim metodikasi bo‘yicha olma N.M. Aksarina didaktik o‘yinlar bolalarning diqqatini jamlash, eslab qolish va mustaqil fikrlash qobiliyatini kuchaytiradi, o‘yin jarayonida bolalar yangi so‘z va grammatikkani tezroq o‘zlashtiradilar deb ta’kidlagan.

Bolalr psixologgi, olma E.O. Smirnova o‘yin – bu bola tafakkurining asosiy shakli, didaktik o‘yinlar esa bola nutqining rivojlanish sur’atini oshiradi va uni muloqotga yanada faolroq jalb qiladi degan fikrni ilgari surgan.

O.R. Galiguzova didaktik o‘yinlar bolaning emotsiyal rivojlanishiga ham ta’sir qilishi, bu esa nutqiy ifodaning jonli va aniq bo‘lishiga yordam berishini tadqiqotlarida asoslab bergen. O‘yinlar orqali bola gaplarning mantiqiy tuzilishini yaxshiroq tushunadi deya ta’kidlagan.

G. A. Zuckerman o‘yin – bolaning ichki nutqini rivojlantirish uchun asosiy shartlardan biri hisoblanadi, o‘yin shaklidagi mashg‘ulotlar bolalarda bog‘langan nutq tuzishga yordam beradi va ularning nutqiy kompetentsiyasini oshirishga yordam beradi deydi.

Didaktik o‘yinlarning bir necha turlari mavjud bo‘lib, ularning har biri bog‘langan nutqni shakllantirishga xizmat qiladi.

Lug‘at boyligini oshiruvchi o‘yinlar:

1. “Kim ko‘proq so‘z ayta oladi?” – ma’lum bir mavzu bo‘yicha so‘zlar aytish orqali lug‘at boyligini oshiramiz.

2. “Qaysi so‘z ortiqcha?” – bolalar so‘zlar orasidan mantiqiy bog‘lanmagan so‘zni topishadi.

Natija: Bola yangi so‘zlarni o‘rganadi, ularning ma’nosini tushunadi va to‘g‘ri qo‘llay boshlaydi.

Grammatik tuzilmani rivojlantiruvchi o‘yinlar

1. “Gapni tugat” – boshlang‘ich qismi berilgan gapni mantiqan tugallash.

2. “Gaplarni to‘g‘ri tuz” – so‘zlardan mantiqiy va grammatik jihatdan to‘g‘ri gaplar tuzish.

Natija: Bola grammatik qoidalarni o’zlashriradi va ulardan ongli ravishda foydalanishni boshlaydi.

Hikoya tuzishga o‘rgatuvchi o‘yinlar

1. “Rasm asosida hikoya tuz” – berilgan rasm bo‘yicha hikoya qilish.

2. “Ertak to‘qib ayt” – bolaning tasavvurini rivojlantirish va mustaqil hikoya yaratishga o‘rgatish.

Natija: Bola bog‘langan nutq tuzish ko‘nikmasini rivojlantiradi, matn tuzish qobiliyati shakllanadi.

Dialogik nutqni rivojlantiruvchi o‘yinlar:

1. “Savol va javob” – bolaning savol berish va javob qaytarish qobiliyatini shakllantirish.

2. “Rolli o‘yinlar” – turli hayotiy vaziyatlarni (do‘konda xarid qilish, shifokor qabulida) sahnalashtirish.

Natija: Bola suhbatlashish, dialog qurish, o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifoda qilishni o‘rganadi.

Didaktik o‘yinlarning samaradorligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish lozim:

- 1.O‘yinlarni bolaning yoshi va qiziqishlariga mos tanlash.
- 2.O‘yin jarayonida bolaning faolligini rag‘batlantirish.
- 3.Nutqiy xatolarni to‘g‘ri uslubda tuzatish, bolaning motivatsiyasini pasaytirmaslik.
- 4.O‘yinlarni turli shakllarda o‘tkazish: individual, juftlik yoki guruh bo‘lib.
- 5.Nutqiy o‘yinlarni teatr, tasviriy san’at va musiqa mashg‘ulotlari bilan bog‘lab borish.

Ko‘plab pedagog va psixolog olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, didaktik o‘yinlar mактабгача yoshdagi bolalarning bog‘langan nutqini rivojlantirishda juda samarali metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu o‘yinlar bolalarda lug‘at boyligini oshirish, grammatik strukturani o‘zlashtirish, mantiqiy va mustaqil fikrlash hamda suhbat qurish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim muassasalari didaktik o‘yinlardan unumli foydalanish bolalarning maktabga tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi.

Quyida maktabgacha yoshdagi bolalarning bog‘langan nutqini rivojlantirishda didaktik o‘yinlar kartotekasi.

1. “Kim, qayerda, nima qilmoqda?”

Maqsad: Bolalarning gap tuzish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Materiallar: Ichida turli tasvirlar (odamlar, joylar, harakatlar) tushirilgan kartochkalar.

O‘yin qoidasi: Bola uchta kartochka tanlaydi va ularni birlashtirib, bog‘langan gap tuzadi. Masalan: “Qizaloq bog‘da gullarni sug‘armoqda”.

2. “Tugallanmagan hikoya”

Maqsad: Bolaning tasavvurini kengaytirish va nutqini bog‘liq holda shakllantirish.

Materiallar: Boshi yozilgan, lekin tugallanmagan hikoyalar.

O‘yin qoidasi: Tarbiyachi hikoya boshlanmasini o‘qiydi, bola esa uni o‘z xohishiga ko‘ra davom ettiradi.

3. “Rasmlarga qarab hikoya tuzamiz”

Maqsad: Rasm asosida bog‘langan hikoya tuzish.

Materiallar: Ketma-ketlikda joylashtirilgan rasmiy kartalar.

O‘yin qoidasi: Bola rasmlar ketma-ketligini tushuntirib, hikoya qilib beradi.

4. “Sehrli xalta”

Maqsad: Bolaning nutqiy tafakkurini rivojlantirish va ta’riflash qobiliyatini oshirish.

Materiallar: Ichiga turli buyumlar solingan xalta.

O‘yin qoidasi: Bola ko‘zini yumib xaltadan bir buyum oladi va uni tasvirlab beradi, lekin nomini aytmaydi. Boshqa bolalar esa buyum nomini topishi kerak.

XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalarda bog‘langan nutqni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion yondashuvlar bolalarning so‘z boyligini kengaytirish, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish hamda mustaqil ravishda gap tuzish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam

beradi. Interaktiv darsliklar, multimediali ilovalar, elektron hikoyalar, audiokitoblar, raqamli doskalar va didaktik o‘yinlar bolaning nutqiy faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR:

1. Leontyev, A.N. (1975). Деятельность. Сознание. Личность [Faoliyat, ong, shaxs]. Moskva: Politizdat. Lisina, M.I. (1986). Развитие общения у детей [Bolalarda muloqotning rivojlanishi]. Moskva: Pedagogika.
2. Смирнова, Е. О. Общение и его развитие в дошкольном возрасте : учебник для вузов / Е. О. Смирнова. — 2-е изд., перераб. и доп. — Москва : Издательство Юрайт, 2025. — 163 с.
3. Ушакова О. С. Развитие речи дошкольников. М.: Изд-во Института Психотерапии.2001. – 256 с.
4. Rubinshteyn S. L. Umumiy psixologiya asoslari. – Moskva, 1989. – 468-bet
5. U.I.Yaxyoyeva. Tilshunoslikda nutqiy aktning o‘rganilishi. Scientific progress volume 4/issue 4/2023 . 144 b
6. Shcherba, L.V. (1974). Языковая система и речевая деятельность [Til tizimi va nutqiy faoliyat]. Leningrad: Nauka.
7. Leontyev, A.N. (1974). Психология общения [Muloqot psixologiyasi]. Moskva: Pedagogika.